

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida**  
**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining jamg'armasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash bo'yicha suhbatni tashkil etish, o'tkazish, baholash va natijalarni rasmiylashtirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Jamg'arma** – Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi;

**Saralash** – Jamg'arma hisobidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli tanlov jarayoni;

**Suhbat** – Saralashning 2-bosqichi bo'lib, nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash jarayoni;

**Vazirlik** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;

**Nomzod** – Saralashning 1-bosqichi natijalariga ko'ra 2-bosqich suhbat jarayonida ishtirok etadigan pedagog xodim (vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchisi yoki maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi);

**Suhbat komissiyasi** – nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash uchun tuziladigan komissiya;

**Apellyatsiya komissiyasi** – suhbat natijalaridan norozi bo'lgan nomzodlarning murojaatlarini ko'rib chiqadigan komissiya.

3. Suhbatda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil 30-yanvardagi 36-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2026-yil uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarning kvotalariga muvofiq, 2025-yilning yanvar–iyun hamda sentabr–dekabr oylarida o'tkazilgan pedagog kadrlar attestatsiyasining birinchi bosqichi — mutaxassislik fani va kasb standarti bo'yicha

bilim darajasini aniqlash natijalariga ko'ra to'plash mumkin bo'lgan maksimal ballning 80 foizidan yuqori natija ko'rsatgan hamda hozirda pedagogik faoliyat yuritayotgan nomzodlar ishtirok etadi.

## **2-bob. Suhbatni tashkil etish**

4. Suhbat oshkoralik, xolislik, teng huquqlilik, shaffoflik, adolatlilik va kollegiallik tamoyillari asosida tashkil etiladi.

5. Suhbat o'tkazish sanasi, vaqti, manzili, tartibi hamda baholash mezonlari haqidagi ma'lumotlar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-saytida oldindan e'lon qilinadi. Nomzodlarni xabardor qilish elektron platformalar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

6. Suhbat 3 nafar a'zodan iborat Suhbat komissiyalari tomonidan o'tkaziladi.

7. Nomzodlar sonidan kelib chiqib, har bir hududda 5 tagacha Suhbat komissiyasi tashkil etilishi mumkin.

8. Suhbat komissiyalari tarkibi hududiy pedagogik mahorat markazlari mutaxassislari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim tashkilotlarining tajribali rahbar hamda pedagog xodimlari orasidan shakllantiriladi.

9. Suhbat jarayonlarining hududlarda yuqori saviyada tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlashga Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari, shuningdek, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari rahbarlarining akademik faoliyat bo'yicha o'rinbosarlari shaxsan mas'ul (keyingi o'rinlarda – Mas'ul xodimlar) etib belgilanadi.

Mas'ul xodimlar:

suhbat jarayonlarining belgilangan tartib va mezonlarga muvofiq tashkil etilishini;

baholashning xolis va adolatli amalga oshirilishini;

tashkiliy va texnik muammolarning tezkor bartaraf etilishini ta'minlash uchun bevosita javobgar hisoblanadi.

10. Suhbat komissiyasi a'zosi uzrli sabablarga ko'ra o'z faoliyatini davom ettirmaydigan holatlarda mas'ul xodimlar tomonidan vazirlikni xabardor qilgan holda tarkibga boshqa mutaxassis jalb etilishi mumkin. Mazkur holat yuzasidan mas'ullar tomonidan tegishli bayonnoma rasmiylashtiriladi.

11. Suhbat komissiyasi a'zolari:

xolislik, adolatlilik va tenglik tamoyillariga qat'iy rioya etishi;

baholash mezonlaridan chetga chiqmasligi;

xizmatga oid axborotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

nomzodlarga nisbatan har qanday noxolis munosabatga yo'l qo'ymasligi;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda bu haqda zudlik bilan mas'ul xodimlarni xabardor qilishi shart.

12. Suhbat komissiyasi a'zolariga suhbat o'tkaziladigan xonaga mobil telefon, planshet, aqlli soat va boshqa aloqa vositalarini olib kirish taqiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mazkur qurilmalarni suhbat boshlanishidan oldin belgilangan tartibda topshirishi yoki maxsus ajratilgan joyda qoldirishi shart.

13. Suhbat komissiyasi a'zolari baholash jarayonida har qanday shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi, nomzodlarning javoblarini faqat tasdiqlangan mezonlar asosida baholashi hamda korrupsiya holatlari, tashqi bosim yoki noqonuniy aralashuvlar aniqlangan taqdirda, komissiya a'zolari bu haqda mas'ul xodimlarni zudlik bilan xabardor qilishi shart.

14. Suhbat o'tkaziladigan joylarda zarur tashkiliy-texnik sharoitlar, jumladan alohida xonalar, mebel, kompyuter texnikasi, internet aloqasi, videoyozuv tizimi va boshqa zarur infratuzilma yaratiladi.

Mazkur sharoitlarni ta'minlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

15. Hududda faoliyat ko'rsatayotgan Suhbat komissiyalari ishini umumiy muvofiqlashtirish, ularning faoliyatini yagona tartib asosida tashkil etish hamda belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash tegishli mas'ul xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

16. Suhbat jarayonlari o'tkazilayotgan xonaga jarayonga bevosita jalb etilgan shaxslardan tashqari begona shaxslarning kirishi taqiqlanadi.

### **3-bob. Suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari**

17. Nomzodlarning suhbatga kirishi kuni, vaqti va navbati tasdiqlangan reja-grafik asosida belgilanadi. Bunda reja-grafik ta'lim (fan) yo'nalishi kesimida nomzod familiyasining alfavit tartibida joylashtirilishi asosida shakllantiriladi.

18. Nomzodlar tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq, o'zlariga belgilangan suhbat kuni va vaqtida suhbat o'tkaziladigan manzilda hozir bo'lishlari va suhbat jarayonida ishtirok etishlari shart.

19. Nomzodlarga suhbat o'tkaziladigan hududga quyidagi buyumlarni olib kirish taqiqlanadi:

mobil telefonlar, planshetlar, aqlli soatlar va boshqa elektron aloqa vositalari;  
yozma materiallar, konspektlar, kitoblar va boshqa axborot manbalari;  
audio yoki video yozib oluvchi qurilmalar;  
ma'lumot uzatuvchi har qanday texnik vositalar.

Nomzodlar yuqoridagi buyumlarni suhbat boshlanishidan oldin belgilangan tartibda topshirishlari yoki maxsus joyda qoldirishlari shart.

20. Taqiqlangan buyumlarni olib kirgan yoki ulardan foydalanishga uringan nomzodlar dalolatnoma asosida suhbatdan chetlashtiriladi va suhbatdan o'tmagan deb hisoblanadi.

21. Suhbat jarayonida nomzodlar tasodifiy tanlangan 4 ta savol bo'yicha mazkur Nizomning 1-ilovasidagi baholash mezonlari asosida maksimal **20 ballik tizimda** baholanadi.

22. Har bir nomzod bilan suhbat o'tkazish uchun 12 (o'n ikki) daqiqa vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqt doirasida nomzodga savollar berish, javoblarni eshitish va baholash jarayoni to'liq yakunlanishi kerak. Suhbat vaqtining oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan faqat texnik uzilishlar yoki komissiya tomonidan asoslantirilgan holatlar mustasno.

23. Baholash maxsus elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Elektron platforma baholash jarayonining shaffofligi, xolisligi va natijalarni avtomatik qayd etilishini ta'minlaydi.

24. Suhbat davomida har bir nomzod baholash mezonlarining har bir bandi bo'yicha alohida-alohida baholanadi. Baholash mazkur Nizomning 2-ilovasida belgilangan shakldagi elektron baholash qaydnomasi asosida amalga oshiriladi hamda Suhbat komissiyasining har bir a'zosi tomonidan mustaqil ravishda elektron platformaga kiritiladi. Komissiya a'zolarining baholash jarayoniga o'zaro aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

25. Nomzodning yakuniy bali Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning arifmetik o'rtacha qiymati asosida elektron platforma orqali avtomatik ravishda aniqlanadi. Zarur hollarda ball ikki xonagacha yaxlitlanadi.

26. Suhbat yakunlariga ko'ra komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning umumiy yig'indisi mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi elektron baholash qaydnomasida aks ettiriladi hamda elektron tarzda saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar keyinchalik tahlil qilish va apellyatsiya jarayonlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

27. Suhbat komissiyasining yakuniy qarori mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi hamda komissiya raisi va barcha a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

28. Bayonnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:  
nomzodning shaxsiy ma'lumotlari;  
malaka sinovlarining 1-bosqich (test) natijalari;  
ma'lumot sifatida malaka sinovlarining 2-bosqich (test) natijalari;  
saralashning 2-bosqich suhbat natijalari;  
malaka sinovlarining 1-bosqich (test) natijalari va saralashning 2-bosqich suhbat natijalari yig'indisi asosida shakllangan yakuniy ball.

29. Bayonnoma saralash natijalarining yagona rasmiy hujjati hisoblanadi.

30. Suhbat jarayonlari yakunlangach, elektron platforma orqali barcha nomzodlar kesimida avtomatik reyting ro'yxati shakllantiriladi. Reyting hududlar va fan yo'nalishlari kesimida, yakuniy umumiy ball asosida kamayish tartibida tuziladi.

31. Hududlar va fan yo'nalishlari kesimida ajratilgan kvotalarga mos ravishda, reyting ro'yxatida eng yuqori o'rinlarni egallagan nomzodlar jamg'arma hisobidan har oylik ustama olish uchun tavsiya etiladi.

32. Agar kvota chegarasida oxirgi o'rinlar bo'yicha nomzodlarning yakuniy ballari teng kelib qolsa, ustunlik quyidagi ketma-ketlikda belgilanadi:

malaka sinovlarining (1-bosqich) natijasi yuqori bo'lgan nomzodga;

malaka sinovlarining (2-bosqich) natijasi yuqori bo'lgan nomzodga;  
amaldagi malaka toifasi yuqori bo'lgan nomzodga;  
pedagogik ish staji ko'proq bo'lgan nomzodga.

33. Yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ballar teng bo'lib qolgan taqdirda tegishli nomzodlar bilan qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

34. Suhbat natijalari elektron platforma orqali avtomatik shakllantiriladi. Nomzodlar o'z natijalarini pedagog.uzedu.uz platformasidagi shaxsiy kabinetlari orqali mustaqil ravishda bilib olishlari mumkin. Natijalar e'lon qilingan vaqt platformada qayd etiladi va shu vaqtdan boshlab apellyatsiya muddati hisoblanadi.

35. Suhbat jarayonining shaffofligini ta'minlash, baholashning xolisligini kafolatlash hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli holatlarni ko'rib chiqish imkoniyatini yaratish maqsadida Suhbat komissiyasi va nomzod o'rtasidagi suhbat jarayoni to'liq videoyozuvga olinadi.

36. Suhbat jarayonlarini videoyozish qurilmalari orqali yozib olish va saqlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

37. Videoyozuvlar faqat vakolatli shaxslar tomonidan xizmat maqsadlarida, xususan apellyatsiya jarayonida foydalaniladi.

38. Suhbat jarayonida tartib-intizom qoidalarini buzgan, komissiya faoliyatiga aralashgan yoki baholash jarayoniga noqonuniy ta'sir ko'rsatishga uringan nomzodlar Suhbat komissiyasi qaroriga asosan dalolatnoma tuzilgan holda suhbatdan chetlashtiriladi.

39. Suhbatda uzrsiz sabablarga ko'ra ishtirok etmagan yoki mazkur Nizom talablarini buzganligi sababli suhbatdan chetlashtirilgan nomzodlar suhbatdan o'tmagan deb hisoblanadi hamda Jamg'arma mablag'lari hisobidan har oylik ustama olish uchun tavsiya etilmaydi.

40. Tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda quyidagi holatlar uzrli sabablar deb e'tirof etiladi:

yaqin qarindoshining vafoti (ota-ona, aka-uka, opa-singil, farzandlar);

xizmat safari yoki davlat/jamoat vazifalarini bajarish (rasmiy buyruq yoki ma'lumotnoma asosida);

favqulodda holatlar yoki nomzod ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan boshqa vaziyatlar (vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangan).

Umumiy, noaniq yoki erkin shaklda berilgan ma'lumotnomalar uzrli sabab sifatida qabul qilinmaydi.

41. Uzrli sabablar bilan suhbatda ishtirok eta olmagan nomzodlar bu haqda suhbat kuni yakuniga qadar tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari shart. Mazkur holat Suhbat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va asosli deb topilgan taqdirda nomzodga suhbat jarayonlari to'liq yakunlangunga qadar masofaviy (onlayn) shaklda suhbat o'tkazish imkoniyati beriladi.

42. Masofaviy suhbat real vaqt rejimida videokonferensiya (Zoom yoki unga tenglashtirilgan platforma) orqali o'tkaziladi. Bunda, nomzodlar quyidagi talablarga qat'iy rioya etilishi shart:

nomzod suhbatda yakka tartibda ishtirok etishi;

boshqa shaxslar, yozma materiallar, mobil qurilmalar yoki har qanday tashqi yordam vositalaridan foydalanmasligi;

suhbat davomida komissiyani chalg'ituvchi yoki aldovga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmasligi;

suhbat boshlanishidan oldin shaxsini tasdiqlashi hamda kamera orqali atrof-muhitni (360° ko'rinishda) ko'rsatishi;

kamera va mikrofon suhbat davomida uzluksiz yoqilgan holda bo'lishi.

43. Masofaviy suhbat to'liq videoyozuvga olinadi. Talablar buzilgan yoki tashqi yordamdan foydalanilganligi aniqlangan taqdirda dalolatnoma tuziladi va nomzod suhbatdan o'tmagan deb hisoblanadi.

44. Saralash natijalariga ko'ra har oylik ustama belgilangan pedagog kadrlar ro'yxatini tasdiqlash va ularga Jamg'arma hisobidan ustamalarni to'lash bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i qabul qilinadi.

#### **4-bob. Suhbat natijalari yuzasidan shikoyat qilish**

45. Suhbat natijalaridan norozi bo'lgan nomzodlar natijalar e'lon qilingan vaqtdan boshlab 48 soat ichida pedagog.uzedu.uz platformasidagi shaxsiy kabineti orqali murojaat qilishlari mumkin.

46. Belgilangan muddat o'tgandan keyin yuborilgan murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

47. Apellyatsiya jarayoni nomzod ishtirokisiz, faqat suhbat videoyozuvi, elektron baholash ma'lumotlari va komissiya bayonnomasi asosida ko'rib chiqiladi.

48. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Suhbat komissiyasi a'zolari kiritilmaydi. Zaruratga ko'ra apellyatsiya jarayoniga malakali ekspertlar jalb etilishi mumkin.

49. Apellyatsiya komissiyasi faqat Suhbat komissiyasi tomonidan qo'yilgan baholarga nisbatan kiritilgan e'tirozlarni ko'rib chiqadi.

50. Subyektiv fikrlar, bahoga nisbatan umumiy norozilik yoki komissiya qaroriga asoslantirilmagan e'tirozlar apellyatsiya uchun asos bo'la olmaydi.

51. Apellyatsiya komissiyasi murojaatni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

suhbat natijasini o'zgartirishsiz qoldirish;

aniqlangan xatoliklar asosida suhbat natijasini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish.

52. Zarur hollarda qayta hisoblangan natijalar asosida nomzodlarning reyting ro'yxati yangilanadi.

53. Apellyatsiya natijalari nomzodlarga elektron platformadagi shaxsiy kabineti orqali rasmiy xabarnoma shaklida yetkaziladi.

#### **5-bob. Yakuniy qoidalar**

54. Suhbat komissiyasi yoki Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

55. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini baholash mezonlari**

1-bosqichda (*fanni bilishi — test*) — **80 ball.**  
2-bosqichda (*kasbiy mahorati — suhbat*) - **20 ball.**  
**Jami: 100 ball.**

T/r	Baholash mezonlari	Ball	Shundan:				
			5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1.	<b>Ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni egallaganlik darajasi</b>	<b>5 ball</b>	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni to'liq, aniq va tizimli biladi, asosiy hujjatlar mazmunini to'g'ri sharhlaydi, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni izohlay oladi, javobida amaliyot bilan bog'liq asosli izohlar keltiradi.	Asosiy me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni yaxshi biladi, savolga asosan to'g'ri javob beradi, ayrim jihatlar to'liq ochildmagan bo'lsa-da, umumiy mazmun va mantiq to'g'ri.	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslar bo'yicha umumiy tasavvurga ega, javobida asosiy fikrlar mavjud, biroq javoblarda ayrim noaniqliklar va sayozlik kuzatiladi.	Asosiy me'yoriy-huquqiy va metodik tushunchalarni qisman biladi, javobida xatolar, chalkashliklar yoki noto'g'ri talqinlar mavjud, amaliyot bilan bog'lashda qiynaladi.	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni yetarli ma'lumotga ega emas, savol mazmunini ochib bera olmaydi, javobida jiddiy xatolar va tushunchaviy noaniqliklar mavjud.
2.	<b>Ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan loyihalash va</b>	<b>5 ball</b>	Ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan to'g'ri loyihalash va samarali tashkil etish bo'yicha	Ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish bo'yicha yetarli bilimga ega, asosiy	Ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish bo'yicha umumiy tasavvurga ega, javobida	Ta'lim jarayonini loyihalash va tashkil etish bo'yicha bilimi cheklangan, javobida	Ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan loyihalash va tashkil etish

	<b>samarali tashkil etish mahorati</b>		chuqur bilimga ega, maqsad, mazmun, metod, shakl va natija o'rtasidagi bog'liqlikni aniq tushuntira oladi, javobida amaliy jihatdan asosli yondashuvlarni ko'rsata oladi.	pedagogik talablarga mos fikr bildiradi, ayrim jihatlar chuqur ochildmagan bo'lsa-da, javob mazmunan to'g'ri va mantiqli.	to'g'ri fikrlar mavjud, ammo tizimlilik, aniqlik va pedagogik chuqurlik yetarli emas.	metodik xatolar yoki izchillik yetishmasligi kuzatiladi, pedagogik yechimlar yetarlicha asoslanmagan.	mohiyatini yetarli tushunmaydi, javoblari tushunarsiz, noto'g'ri yoki amaliy jihatdan asossiz.
<b>3.</b>	<b>O'quvchilar o'quv natijalarini baholash hamda samarali qayta aloqa (feedback) taqdim etish kompetensiyasi</b>	<b>5 ball</b>	O'quv natijalarini baholashning maqsadi, turlari va usullarini to'liq, aniq va tizimli tushuntira oladi, baholash tamoyillari, mezonlari hamda ko'rsatkichlaridan foydalanish zaruratini asoslay oladi, formativ va summativ baholashning farqi va vazifasini to'g'ri izohlay oladi, qayta aloqaning o'quvchi rivojlanishidagi o'rnini aniq ko'rsata oladi hamda samarali feedback berish usullarini amaliy misollar bilan yoritadi.	O'quv natijalarini baholash va qayta aloqa bo'yicha yetarli darajada mazmunli javob beroladi, asosiy yondashuvlarni to'g'ri izohlay oladi, baholash va feedbackning ahamiyatini anglaydi, biroq ayrim jihatlarni chuqur tahlil qilishda hamda aniq misollar bilan yoritishda yetarli darajada aniqlik yetishmaydi.	O'quv natijalarini baholash va qayta aloqa berish bo'yicha umumiy tasavvurga ega, asosiy tushunchalarni ayta oladi, biroq javobida tizimlilik, mezonlilik va amaliy aniqlik yetishmaydi, feedbackning mazmuni va vazifasini qisman yoritadi.	O'quv natijalarini baholash va qayta aloqa bo'yicha cheklangan tushunchaga ega, baholash turlari, mezonlari va feedbackning vazifasini izohlashda chalkashliklar mavjud, amaliyotga yo'naltirilganlik darajasi sust.	O'quv natijalarini baholash va qayta aloqa berish bo'yicha yetarli bilimga ega emas, savol mazmunini ochib bera olmaydi, baholash va feedbackga oid tushunchalarni noto'g'ri talqin qiladi yoki umuman izohlay olmaydi.
<b>4.</b>	<b>Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, AKT va pedagogik vaziyatlarga amaliy yechim qo'llash kompetensiyasi</b>	<b>5 ball</b>	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va AKT imkoniyatlarini chuqur biladi, pedagogik vaziyatni to'g'ri tahlil qiladi, unga mos, asosli va samarali amaliy yechim taklif etadi, javobida innovatsion va natijador yondashuv yaqqol ko'rinadi.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va AKT bo'yicha yetarli bilimga ega, javobi to'g'ri, pedagogik vaziyatga mos amaliy yechim taklif etadi, biroq ayrim jihatlar yetarlicha asoslanmagan.	Zamonaviy yondashuvlar va AKT bo'yicha umumiy tasavvurga ega, pedagogik vaziyatga qisman mos yechim ayta oladi, ammo javobida aniqlik, asoslanganlik yoki natijadorlik yetarli emas.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va AKT bo'yicha bilimi sust, pedagogik vaziyatga mos yechim taklif qilishda qiynaladi, javobi umumiy yoki amaliy jihatdan zaif.	Zamonaviy yondashuvlar, AKT va pedagogik vaziyatlarga amaliy yechim qo'llash bo'yicha yetarli kompetensiyaga ega emas, savolga asosli javob bera olmaydi.
	<b>Jami:</b>	<b>20 ball</b>	<b>20 ball</b>	<b>16 ball</b>	<b>12 ball</b>	<b>8 ball</b>	<b>4 ball</b>

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini baholash mezonlari**

1-bosqichda (yo'nalish bo'yicha bilishi — test) — **80 ball.**

2-bosqichda (kasbiy mahorati — suhbat) - **20 ball.**

**Jami: 100 ball.**

T/r	Baholash mezonlari	Ball	Shundan:				
			5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
1.	<b>Maktabgacha ta'limga oid me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni bilishi</b>	<b>5 ball</b>	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni to'liq, aniq va tizimli biladi, asosiy hujjatlar mazmunini to'g'ri sharhlaydi, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni izohlay oladi, javobida amaliyot bilan bog'liq asosli izohlar keltiradi.	Asosiy me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni yaxshi biladi, savolga asosan to'g'ri javob beradi, ayrim jihatlar to'liq ochilmagan bo'lsa-da, umumiy mazmun va mantiq to'g'ri.	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslar bo'yicha umumiy tasavvurga ega, javobida asosiy fikrlar mavjud, biroq javoblarda ayrim noaniqliklar va sayozlik kuzatiladi.	Asosiy me'yoriy-huquqiy va metodik tushunchalarni qisman biladi, javobida xatolar, chalkashliklar yoki noto'g'ri talqinlar mavjud, amaliyot bilan bog'lashda qiynaladi.	Me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni yetarli ma'lumotga ega emas, savol mazmunini ochib bera olmaydi, javobida jiddiy xatolar va noaniqliklar mavjud.
2.	<b>Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish mahorati</b>	<b>5 ball</b>	Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim-tarbiya jarayonini tizimli rejalashtirish bo'yicha chuqur bilimga ega, maqsad va natijalarni aniq tushuntirib beradi, mashg'ulotlarni o'yin asosida tashkil etib, bolalarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash hamda	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha yetarli bilimga ega, mashg'ulotlarda o'yin elementlari qo'llashni tushuntirib beradi, biroq bolalarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash hamda individual yondashuv	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha umumiy tasavvurga ega, mashg'ulotlar asosan an'anaviy uslubda olib borish bo'yicha bilimlarga ega, o'yin metodlaridan foydalanish bo'yicha tushunchaga ega emas.	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha umumiy tasavvurga ega, javobida metodik xatolar yoki izchillik yetishmasligi kuzatiladi, pedagogik yechimlar yetarlicha asoslanmagan.	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish mohiyatini yetarli tushunmaydi, javoblari tushunarsiz, noto'g'ri yoki amaliy jihatdan asossiz.

			individual yondashuvni asoslab beradi.	bo'yicha umumiy tushunchaga ega.			
<b>3.</b>	<b>Tarbiyalanuvchilar rivojlanishini kuzatish va rivojlanish xaritasiga qayd etish</b>	<b>5 ball</b>	Bolalarning rivojlanishini kuzatish, natijalarni rivojlanish xaritasiga aniq va to'g'ri qayd etish bo'yicha bilimlarga ega, bolalarning rivojlanishida boshqa pedagoglar va otionalarning o'rnini misollar bilan asoslab beradi.	Bolalarning rivojlanishini kuzatish, natijalarni rivojlanish xaritasiga aniq va to'g'ri qayd etish bo'yicha bilimlarga ega, bolalarning rivojlanishida boshqa pedagoglar va otionalarning o'rnini umumiy mazmunda tushuntirib berdi.	Bolalarning rivojlanishini kuzatish, natijalarni rivojlanish xaritasiga aniq va to'g'ri qayd etish bo'yicha umumiy tushunchaga ega, bolalarning rivojlanishida otionalarning o'rnini bo'yicha umumiy mazmunda tushuntirib beradi, biroq boshqa pedagoglarning o'rnini haqida bilimlarga ega emas.	Bolalarning rivojlanishini kuzatish, natijalarni rivojlanish xaritasiga aniq va to'g'ri qayd etish bo'yicha umumiy tushunchaga ega, biroq bolalarning rivojlanishida boshqa pedagoglar va otionalarning o'rnini haqida bilimlarga ega emas.	Bolalarning rivojlanishini kuzatish, natijalarni rivojlanish xaritasiga aniq va to'g'ri qayd etish mohiyatini yetarli tushunmaydi, javoblari tushunarsiz, noto'g'ri yoki amaliy jihatdan asossiz.
<b>4.</b>	<b>Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKTdan foydalanish hamda pedagogik vaziyatlarga amaliy yechim qo'llash kompetensiyasi</b>	<b>5 ball</b>	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKT imkoniyatlari haqida bilimlarga ega, ta'lim-tarbiya jarayonlarini interfaol usullar, STEAM va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda bolalarda faollik va ijodkorlikni rivojlantirishni o'rinni qo'llashni misollar bilan tushuntirib beradi, pedagogik vaziyatlarga tezkor va ijodiy yechim topadi.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKT bo'yicha yetarli bilimlarga ega, misollar bilan tushuntiradi, ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol usullar va STEAM yondashuvlaridan foydalanishni tushuntirib beradi, pedagogik vaziyatlarga amaliy yechimlar taklif etadi, ayrim jihatlar to'liq asoslanmagan.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKT bo'yicha umumiy tushunchaga ega, ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol usullar va STEAM yondashuvlaridan foydalanishni umumiy mazmunini tushuntirib beradi, pedagogik vaziyatga qisman mos yechim ayta oladi, ammo javobida aniqlik, asoslanmaganlik yoki natijadorlik yetarli emas.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKT bo'yicha yetarlicha bilimlari yetarli emas, pedagogik vaziyatga mos yechim taklif qilishda qiyinaladi, javobi umumiy yoki amaliy jihatdan zaif.	Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yin texnologiyalari va AKT bo'yicha yetarli kompetensiyaga ega emas, pedagogik vaziyatga mos yechim taklif qilishda qiyinaladi, savolga asosli javob bera olmaydi.
	<b>Jami:</b>	<b>20 ball</b>	<b>20 ball</b>	<b>16 ball</b>	<b>12 ball</b>	<b>8 ball</b>	<b>4 ball</b>

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Baholash mezonlariga ko'ra Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqich – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat komissiyasi a'zosi tomonidan nomzodlarni baholash qaydnomasi**

(2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat natijalari)

<b>T\r</b>	<b>Nomzodning F.I.SH.</b>	<b>Ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy va metodik asoslarni egallaganlik darajasi (5 ball)</b>	<b>Ta'lim jarayonini pedagogik jihatdan loyihalash va samarali tashkil etish mahorati (5 ball)</b>	<b>O'quvchilar o'quv natijalarini baholash hamda samarali qayta aloqa (feedback) taqdim etish kompetensiyasi (5 ball)</b>	<b>Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, AKT va pedagogik vaziyatlarga amaliy yechim qo'llash kompetensiyasi (5 ball)</b>	<b>Jami ball</b>
<b>1</b>						
<b>2</b>						
<b>3</b>						
<b>.</b>						
<b>.</b>						
<b>.</b>						

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomga  
3-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqich – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodlarga qo'yilgan jami ballarning o'rtachasini aniqlash qaydnomasi**

(2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat natijalari)

T\r	Nomzodning F.I.SH.	Komissiya a'zosi F.I.SH	Komissiya a'zosi F.I.SH	Komissiya a'zosi F.I.SH	O'rtacha ball (Suhbat natijasi bo'yicha yakuniy ball)
		<i>baholash mezoniga ko'ra qo'ygan jami balli</i>	<i>baholash mezoniga ko'ra qo'ygan jami balli</i>	<i>baholash mezoniga ko'ra qo'ygan jami balli</i>	
1					
2					
3					
.					
.					
.					

Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbatni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida nomzodlar o'rtasida o'tkazilgan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha SUHBAT KOMISSIYASI BAYONNOMASI**

2026-yil “\_\_” \_\_\_\_\_

(Suhbat o'tkazilgan hudud nomi)

Mazkur bayonnoma Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2026-yil “\_\_” – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga talablari bo'yicha o'tkazilgan Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida nomzodlar o'rtasida o'tkazilgan ikki bosqichli saralashning 2-bosqichi — kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat natijalari asosida rasmiylashtirildi.

Suhbat jarayonlari belgilangan tartibda, oshkoralik, xolislik, tenglik va shaffoflik tamoyillari asosida, tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq o'tkazildi. Nomzodlarning javoblari yuqorida qayd etilgan Nizomning 1-ilovasida belgilangan baholash mezonlari asosida baholanib, har bir komissiya a'zosi tomonidan elektron platforma orqali mustaqil ravishda ball qo'yildi.

Nomzodlarning yakuniy natijalari komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning arifmetik o'rtacha qiymati asosida aniqlanib, 1-bosqich natijalari bilan birgalikda umumiy ball shakllantirildi.

T/r	Ariza raqami	F.I.SH	Hududi	Fan yo'nalishi	Malaka sinovlarining 1-bosqich natijasi	Malaka sinovlarining 2-bosqich natijasi	Amaldagi toifasi	Ish staji (vazirlik tizimidagi)	2-bosqich (suhbat natijasi)	Yakuniy ball (1- va 2-bosqich natijalari qo'shilganda)	Reyting o'rn
1.											
2.											

**Suhbat komissiyasi raisi:** \_\_\_\_\_ (F.I.SH.) \_\_\_\_\_ (imzo)

**Suhbat komissiyasi a'zosi:** \_\_\_\_\_ (F.I.SH.) \_\_\_\_\_ (imzo)

**Suhbat komissiyasi a'zosi:** \_\_\_\_\_ (F.I.SH.) \_\_\_\_\_ (imzo)

**Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi hisobidan 2026-yilda har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ikki bosqichli saralashning 2-bosqich – kasbiy mahoratni baholash bo'yicha suhbat o'tkaziladigan manzillar**

**RO'YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Suhbat o'tkazish joyi</b>	<b>Manzil</b>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Ernazar ala ko'z ko'chasi, 54-uy
2	Andijon viloyati	Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi	Andijon viloyati, Andijon shahri, Istiqlol ko'chasi 8-uy
3	Buxoro viloyati	Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Piridastgir ko'chasi, 15-uy
4	Jizzax viloyati	Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Islom Karimov shoh ko'chasi, 6-uy
5	Qashqadaryo viloyati	Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani, Loliston MFY, Paxtakor ko'chasi 930-uy
6	Navoiy viloyati	Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi	Navoiy viloyati, Karmana tumani, Toshkent ko'chasi, 41A-uy
7	Namangan viloyati	Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi	Namangan viloyati, Namangan shahri, Islom Karimov ko'cha, 23-uy
8	Samarqand viloyati	Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi	Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Nayman MFY, H.Obiddinov ko'chasi, 7-uy
9	Surxondaryo viloyati	Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Salovat ko'chasi, 9-uy
10	Sirdaryo viloyati	Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi	Sirdaryo viloyati Guliston shahri, Ma'naviyat MFY, Ezgulik ko'chasi, 5a-uy
11	Toshkent viloyati	Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi	Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, G'azalkent shahri, Birlik ko'chasi, 21-uy
12	Farg'ona viloyati	Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi	Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Oybek MFY, K.Behzod ko'chasi, 2-uy
13	Xorazm viloyati	Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi	Xorazm viloyati, Xiva shahri, Mevaston MFY, Amir Temur ko'chasi, 31/5-uy
14	Toshkent shahar	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti	Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 6-uy

*\*Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan kelib chiqqan holda suhbat o'tkazish belgilangan kunlarga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Suhbat o'tkazish belgilangan kunlarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda nomzodlar hududiy boshqarmalar tomonidan xabardor qilinadi.*